https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Abdurahmonova Farangiz Husan qizi
Termiz davlat universiteti
O'zbek filologiyasi fakulteti 2-bosqich talabasi
+998 97 5506306 sabdurahmonova403@gmail.com

"SAG'RI TERI TILSIMI" ROMANIDA QAHRAMON XARAKTERINING BADIIY TAVSIFI

Annotasiya: Mazkur maqolada fransuz adabiyotining arkonlaridan biri - Onore de Balzakning dunyoga mashhur "Sag'ri teri tilsimi" falsafiy romani haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, asarning g'oyaviy tahlili, syujet va kompozitsiyasining analizi hamda asosan obrazlarning asarda tutgan o'rni, ayniqsa, bosh obraz Rafael de Valentinning hayoti, hissiyotlari, o'ylari, qilmishlari orqali uning xarakteristikasi va psixologiyasi eng asosiysi, asarning bosh g'oyasi ochib beriladi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi ushbu durdona asarning asosini o'quvchilarga yetkazish va adabiyotshunoslik sohasiga oz bo'lsa-da hissa qo'shishdir.

Kalit so'zlar: realizm, obraz, syujet, falsafiy roman, xarakteristika, psixologik tahlil, taqdir, badiiy tahlil.

Annotation: This article discusses the world-famous philosophical novel The Magic Skin by one of the pillars of French literature, Honoré de Balzac. It provides an ideological analysis of the work, an examination of its plot and composition, and particularly focuses on the roles of the characters — especially the main character, Raphael de Valentin. Through his life, emotions, thoughts, and actions, the article explores his characterization and psychology, ultimately revealing the central idea of the novel. The main purpose of this research is to

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

convey the essence of this literary masterpiece to readers and to contribute, even in a small way, to the field of literary studies.

Keywords: realism, image, plot, philosophical novel, characteristic, psychological analysis, fate, artistic analysis

Аннотация: В данной статье рассматривается всемирно известный философский роман Шагреневая кожа одного из столпов французской литературы — Оноре де Бальзака. Проводится идейный анализ произведения, анализируются его сюжет и композиция, особое внимание уделяется ролям персонажей, в частности, главному герою Рафаэлю де Валентину. Через его жизнь, эмоции, мысли и поступки раскрываются его характер и психология, а также основная идея романа. Основная цель данного исследования — донести суть этого шедевра до читателей и внести пусть небольшой, но вклад в область литературоведения.

Ключевые слова: реализм, образ, сюжет, философский роман, характеристика, психологический анализ, судьба, художественный анализ

KIRISH

Jahon adabiyotining arkonlaridan biri bo‘lmish fransuz adabiyoti o`zining serqirra ijodkorlari va durdona asarlari bilan boshqa adabiyotlardan keskin ajralib turadi. Shunday go'zal adabiyot olamining vakili, benazir iste’dod egasi, Onore de Balzak ijodi alohida ahamiyatga molik ,ayniqsa, uning "Insoniyat komediyasi" epopeyasi adabiyot osmonida eng yorug' yulduzlardan biri bo‘lib joy olgan. Ushbu kitobga 111 roman joylanishi reja qilingan, biroq Balzak vafotiga qadar 72 asar yozishga ulgurgan, xolos. Balzak ushbu epopeyani o’z qo’li bilan uch toifaga ajratgan:

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

1.Scènes de la vie (Hayot sahnalari)	Jamiyatning turli qatlamlarini aks ettiradi; shaxsiy, viloyat, Parij, harbiy, qishloq hayoti sahnalari.
2.Études philosophiques (Falsafiy tadqiqotlar)	Hayot, taqdir, shaxsiyat, muhabbat, istaklar, aks ettirgan, chuqur fikrlar aks etgan asarlar.
3.Études analytiques (Tahliliy tadqiqotlar)	Jamiyat institutlarini, munosabatlarini tahlil qiladi; nikoh, mulk, huquq, urf-odatlar haqida

1. Onore de Balzak. La Comedie Humaine(to'liq to'plam). Furne, Parij-1842

Bu asarlarning biri adabiyot olamida o'ziga yarasha o'ringa ega, xususan, adib qalamiga mansub "Sag'ri teri tilsimi" falsafiy romani inson va hayotining tub mazmunini ochib beradigan takrorlanmas asardir, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Asarning g'oyasiga alohida to'xtalish uchun obrazlar tizimi va syujetga e'tibor berish lozim, negaki asar g'oyasi bir epizotning taqdiri orqali ochib berilgan, har qanday asarda bosh va epizotik obrazlar bo'lganidek, asarning bosh personaji Rafael de Valentin ismli 27 yoshlardagi yosh yigitchadir. Ushbu yigitchaning taqdiri, uning o'y-xayollari, orzu-umidlari, jamiyatga bo'lgan munosabati, haqiqiy hayotni qaysi ko'z bilan ko'rishi, dunyoqarashi orqali asarning, balki butun bir jamiyatning , butun insoniyatning azaliy muammolari, orzu-niyatlari ochib beriladi. Voqealar rivojida esa uning o'ziga xos xarakteristikasi, psixologiyasi va uning faqat o'zigagina xos bo'lgan o'zligi ochib beriladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Fransuz millatining faxr-u iftixori bo'lmish Onore de Balzak biografiyasi va ijodiyotiga oid tadqiqot va izlanishlar boshqa yozuvchilarga qaraganda juda erta XIX asrlardayoq boshlangan. Jumladan, Baalzak haqida ilk ma'lumotlar fransuz adabiyotshunosi va tanqidchisi Charles-Augustin Sainte-Beuve (1804-1869) hali Balzak tirikligidayoq tanqidiy yondashuvlarni boshlab yuborgan. Umuman olganda, Balzak haqida adabiyotshunoslar doirasida doim ham iliq fikrlar bilidirilmagan, xususan, Sainte-Beuve ham ba'zi maqolalarida Balzakni qoralagan.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Misol uchun, u “Portraits litteraires” maqolasida Balzakning “Sag’ri teri tilsimi” romani ham kiritilgan “shohona” asari - “Insoniyat komediyasi” haqida shunday deydi:

“... “Insoniyat komediyasi” san’atdan ko’ra pul topishga mos.” - deya uninf ushbu buyuk asarini “tijorat adabiyoti” deya baholaydi. [1:210] Bundan tashqari, Hippolyte Taine (1828-1893) fransuz tarixchisi ham uning jodini o’ziga xos uslub - ijtimoiy tarix kontekstida o’rgangan va o’zining “La literature francaise” asarida unga shunday ta’rif beradi:

“XIX asrning eng yirik romani nullisti”. [2:63]. Binobarin, nafaqat fransuz adabiyotshunoslari, balki o’zbek aadabiyotshunoslari va munaqqidlari ham Balzak hayoti va ijodiga oid turli izlanishlarni olib borishgan. Jumladan, o‘zbek dabiyotshunoslari orasida 1-bo’lib Balzak hayotiga oid jiddiy tadqiqqot ishlarini olib borgan. U fransuz realizmiga va Balzakning “Insoniyat komedsiyasi”ga tahliliy yondashuvlar bergan. Yana bir adabiyotshunos hamda tarjimon Mamanazarova Sayyora ham Balzakning tasvir uslubi, psixologik realizmi haqida o’z fikrlarini bildirib, maqolalar yozgan. Eng muhimi adibning ba’zi asarlarini tarjima qilib o’zbek kitobxonlariga Balzakni tanitishda katta xizmat ko’rsatgan.

Tadqiqot metodoligiyasi

Ushbu maqolaning yozilishida turli metodlardan, shuningdek, analitik - tahliliy metod, deskriptiv - tavsiflovchi metod, empirik metod, deduktiv - mantiqiy metod hamda tanqidiy yondashuv kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan

Tahlillar va natijalar

Asar voqealari qashshoqlikdan, ruhiy bosimdan, kambag‘allik balosidan qiynalib, axiyri o'z joniga qasd qilish uchun Sena daryosiga o‘zini tashlashga otlanganidan boshlanadi. U olim, ziyoli oq-u qorani tanigan o‘qimishli inson, biroq ko'p qiyinchiliklar uning ruhiyatiga ta'sir qilib, shu darajaga yetkazganki, u o'z joniga qasd qilmoqchi, shunday bir vaziyatda tasodifan uning qo‘liga tilsimli sag‘ri

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

teri tushib qoladi, uning tilsimi shunday ediki, uni egallagan inson uning har bir istagi xoh so‘z bilan, xoh uyi bilan umriga zomin bo'ladi, ya'ni har bir xohish sag'ri terini qisqartirib yuboradi.Sag'ri teriga ham bu tilsim alohida so‘zlar bilan qadimgi arab yozuvda yozib qo'yilgan edi. Sag‘ri teriga shunday so‘zlar yozilgan: Mening egam hamma narsaga ega bo'ladi, ammo uning joniga men ega bo'laman, tangri irodasi shu istaganingni tila, ijobat bo‘lg'ay, lekin tilagingni hayotingga mosla, joning menda, har bir tilagingdan umring kunlari kamaygani singari men ham kamayaman, menga ega bo'lishini istaysanmi ol, senga tangri yor bo'lgay omin. Qisqargan terini esa na gidravlik bosim, na mexanik moslama, na kimyoviy kislotalar bilan cho'zish uning hajmi va tarkibiga ta'sir etish mumkin. Muxtasar aytganda Rafael hayotdan shunday to‘ygan ediki, hatto shu darajada og'ir shartlarni ham pisand etmay sag‘ri terini qabul qiladi. Asar voqealari chaqmoqdek tez va keskin o'zgarib, Rafaelning hayotida tubdan burilish yasaydi, sag‘ri teri rostdan ham naf berib, uning har bir istagi amalga oshaveradi va uning hayot iplari asta-sekin uziladi. Inson shunday jonzotki, unga fikrlash qobiliyati hadya etilgan, biroq uning bir lahza oldingi fikri va bir minut keyingi fikri o'rtasida yer bilan osmoncha farq bo'lishi mumkin, hatto Rafael ham bir kun avval hayotdan to‘yib turgan edi, aksincha, ertasi kuni terining qisqarganini ko'rib, jon-poni chiqib ketadi. Kecha o‘zini o'ldirmoqchi bo'lgan inson bugun umrining qisqarayotganini ko'rib, ho‘ngrab yig‘laydi. Bu- Allohning mo‘jizasi. Asarning eng kulminatsion nuqtasi Rafaelning haqiqiy hayot mazmunini anglab yetishidir, avvalo, asar voqealari davomida Rafael teatrda bir go‘zalni, ya’ni kambag'allik chog'i ko'ngil qo’ygan, ammo muhabbat olovini olishni istamagan, mehribon, eng ajib his-tuyg‘ular egasi Polinani uchratib qoladi, shuncha vaqt, shuncha oy-u kun o'tgachgina o'z sevgisini ichidan his qiladi.

Savol tug‘ilishi mumkin, nega o'sha paytlarda ham qizning mehr-muhabbatga to'la, samimiy yuragini ko‘rib turib ham unga sevgi izhor qilmadi. Birinchidan, Rafael futbollik botqog'iga shunchalar botib qolgan ediki, bu botqoqning tarkibi dabdababozlik, soxtalik, riyo, qalbaki asar yozish kabi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

balchiqlardan iborat edi. Bu botqoq bilan Polinadek sof va ezgu qizni bir joyga qo'yish - bu eng chirkin, insonning vijdoniga ham to'g'ri kelmaydi. Ikkinchidan, u soxta sevgi domiga tushib qoladi. Rafielning dunyoqarashida katta bo'shliq bor edi, u yoshligida otasi tomonidan ruhiy bosimga uchraydi, otasi vafotidan so'ng esa kambag'allik jaziramasidan qattiq kuyadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u kambag'al qizning beg'ubor ishqini emas, balki kiborlar jamiyatining chirkin iplariga jon-jahdi bilan o'ralib qolgan ayol- Fiadoraning soxta muhabbatini haqiqiy ish deb o'ylaydi va hayotdagi eng katta xatolardan birini qiladi. Shuningdek, Rafaelning har bir tilagi, hatto o'ylagan taqdirda ham amalga oshaveradi, lekin birgina tilagi Polina meni sevib qolsin degan iltijosi amalga oshmaydi. Chunki avvaldan mavjud tilakni qayta bajarishning iloji yo'q, ya'ni Polina avval boshdan uni ezgu tuyg'ular ila bor qalbi ila sevardi. O'sha vaqt, o'sha joy, o'sha vaziyatda Rafael- asarning ushbu epizodi har bir insonning ko'ziga yosh keltiradi. "Sag'ri teri tilsimi" kitobining eng kulminatsion nuqtasi va asarning tub mohiyati ushbu epizodda mujassamlashgan. O'sha payt, o'sha joy, o'sha vaziyatda Rafael umrning tub ma'nosini anglab yetadi, ya'ni hayotda faqat boylik, dabdaba, moddiyat bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi, balki muhabbat, ezgulik, ma'naviyat eng boqiy tuyg'ulardir. Jumladan, tarozining bir tomoniga pul, mansab, ganchbozlikni qo'yadigan bo'lsak, ikkinchi tomoniga esa faqat sevgini joylashtirsak, o'z-o'zidan sevgi toshi tarozini bir tomonga og'dirib yuboradi, negaki sevgigina insonni insoniy his-tuyg'ular bilan o'rab turadi, uni inson qilib turadi. Tarozining narigi tomonidagi obyektlar esa uni insoniylikdan chiqarib, hayvon bilan barobar qilib qo'yadi. Asar yakunida Rafael Polina bilan qisqa muddat baxtli yashasa-da, ularning sof ishqini o'lim changali ajratib yuboradi. Eng so'nggida esa bosh qahramon Rafael tilidan aytilgan aytilgan ehtirosli va o'tli jumlalar uning haqiqiy hayotdan olgan eng so'nggi to'g'ri va yakunlovchi xulosasi sifatida o'quvchi qalbida qoladi:" Polina, Polina, men seni sevaman, seni jonimdan ortiq yaxshi ko'raman, sen bilan birga bo'lishni istayman. Sening quchog'ingda o'lishni

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

istayman",- [3:283] deya qilgan iqrori asl hayotdagui eng samimiy va eng to'g'ri fazilat muhabbat ekanligini anglagan edi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, "Sag'ri teri tilsimi" kitobi bilan Onore de Balzak har bir yo'ldan adashgan insonni to'g'ri yo'lga solish, haqiqat yo'lidan o'zga yo'lga adashishdan qaytarib qolishga harakat qiladi. Ayniqsa, Balzak ushbu asar orqali jamiyatga ko'zgu tutadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ko'pchilik adabiyotshunoslar va munaqqidlar XIX asr fransuz realizmi davriga oid bo'lgan "Insoniyat komediyasi"ning yuragi hisoblangan "Sag'ri teri tilsimi" falsafiy romanini "jamiay ko'zgusi" deya bejiz ta'rif bermagan. Asar so'nggida roviy - hikoya qiluvchi tomonidan aytilganidek, takabbur , ikkiyuzlamachi, kiborlar jamiyatining eng chirkin botqog'iga botib qolgan, go'zal va husn-u malohat bobida yagona bo'lsa-da insoniy fazilatlar va nafis hislardan mutlaqo mosuvo bo'lgan riyokor Fyodora obrazi haqida shunday deyiladi:" ...Agar ta'bir joiz bo'lsa, Fyodora - jamiyatning o'zi!" [3:286] Nafaqat davrning , balki butun har bir davrning global muammosini aks ettirgani uchun, shuningdek, haqiqiy takrorlanmas obrazlarni yaratib har bir insonga, kitobxonga ko'zgu tutgani uchun ham bo'lsa kerak, bu asar asr oshgan asarlar sirasiga kiradi va har qanday adabiyot muxlislarining yuragini zir titratib, uning eng chuqur yeridan joy oladi, nafaqat bugungi kun, balki kelajakda ham "Sag'ri teri tilsimi" asari o'z mohiyatini yo'qotmagay.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. CH. Sainte-Bauve. *Portraits litteraires* II jild. "Garnier freres". Parij-1838

2. H.Taine. *Etude sur Balzak* II jild. Nouveaux essais de critique et d'histoire. Parij,Hachette-1865

3. O.Balzak. *Sag'ri teri tilsimi*. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1981

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

4. S.Mamanazarova. *Balzak asarlari tarjimalari tahlili*. O'zbekiston adabiyoti va san'ati.1985

5. H.Karimov. *Fransuz adabiyoti tarixi*. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent-2002

6. Kelllen Safreed. *Stranger than fiction: The realism of the unreal in Balzac's La peau da chagrin and Dostoyevskiy's Dvoynik*. The college of Wooster. London-2013

7. Sayfullayeva, Zulfiya. *Onore de Balzak ijodining badiiy xususiyatlari*. TDTU nashriyoti.Toshkent-2005

8. Momin, P. *Jahon adabiyoti tarixi*. Universitet nashriyoti. Toshkent-1994

9. Mamanazarova, Sayyora. "*Balzak asarlarida realizm va xarakterlar tizimi*." Adabiyotshunoslik. Toshkent-2015

10. Karimov, H. *Fransuz adabiyoti* tarixi. Ma'naviyat nashriyoti. Toshkent-2005

11. Troyat, Anri. *Balzak*(monografiya). Molodaya Gvardiya. Moskva-1985.

12. Abdullayev, Q. "*Balzak nasrida ijtimoiy-tarixiy muhit aks ettirilishi*." O'zbek tili va adabiyoti. Toshkent-2015.